

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**CHET TILINI O'QITISHDA
YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH**

TOSHKENT – 2005

Malika XOLDOROVA
Nazira FAYZIYEVA
Farida RIXSITILLAEVA

CHET TILINI O'QITISHDA
YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH

© Nizomiy nomidagi TDPU. 2005

Mazkur metodik qo'llanmada oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalariga chet tillarini o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi qo'shimcha vosita va usullardan foydalanishning pedagogik jihatlari ustida so'z boradi.

Muallifning ko'p yillik ish tajribasi va tuzatishlari asosida yaratilgan ushbu qo'llanmadan barcha mutaxassislik bo'yicha bilim olayotgan talabalar, aspirantlar, yosh o'qituvchilar, shuningdek, barcha qiziqqan kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: p.f d., prof. J. Hasanboyev

Tuzuvchilar: O'zDJTU dotsenti, p.f.n. N. F. Qambarov

O'zDJTU dotsenti, p.f.n. B.Qorayeva

Muharrir: S.Abduhakimova

SO'Z BOSHI

Kun sayin jahonga yuz tutib, har jihatdan ozgarib borayotgan mustagil Respublikamiz jadallik bilan ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda rivojlanib borayotganligining shohidi bolib turibmiz. Barcha sohalarda bo'layotgani kabi ilm-fan sohasida ham ilmiy yangiliklar dunyoga kelmoqda.

O'rta asrlarda mamlakatimizda butun dunyoga taniqli olimu – fozillar yashab ijod etganlari barchaga ma'lum. Bugungi kunda ham ana shunday olimlar, mutaxassislar, umuman olganda barkamol rivojlangan shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan kasb – hunar egalari, yetuk kadrlar tayyorlash “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da belgilab berilgan. Shu sababli ham avvalo o'tmishda allomalar qoldirgan ijodiy meroslari, mamlakatimiz, shuningdek, jahon ilm – fanining zamonaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish, davr talabidir. Bunga esa fagatgina chet tillarini mukammal bilish, tilga oid barcha qonun qoidalari boyicha bilim egallash zarur bo'ladi. Shu maqsadda chet tillarini o'rganishning yanada samarali yo'llarini izlash, turli o'qitish uslublarini yaratish olimlarimiz, izlanuvchi o'qituvchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifadir.

Mazkur metodik qo'llanma mualliflari ana shu maqsadni oldilariga qo'ygan holda ushbu kitobchani yaratdilar. Unda oliy o'quv yurtlari va akademik litsey hamda kasb – hunar kollejlari talabalariga chet tillarini o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi qo'shimcha vosita va usullardan foydalanishning pedagogik jihatlari yoritilgan.

Ushbu metodik qo'llanmadan barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bilim olayotgan talabalar, aspirantlar, yosh o'qituvchilar, shuningdek, barcha turdagi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

Metodik qo'llanma so'z boshi, to'rtta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Metodik qo'llanmada o'quvchilar yordamchi so'zlar va ularning mohiyati bilan tanishtiriladilar. Ularni o'rganishda internet imkoniyatlaridan, innovatsion pedagogik texnologiyalardan, davriy nashr materiallari asosida tayyorlangan qo'llanmalardan foydalanish usullarini bilib oladilar.

O'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etishda foydalanadigan tarqatma materiallardan foydalanadilar. Shuningdek qo'llanmada chet tili xonasida o'qitish vositalaridan kompleks foydalanishning yangi usullaridan xabardor bo'ladilar.

Mazkur qo'llanma besh bo'limdan iborat bo'lib, umumiy hajmi 2 bosma taboqdir.

Mualliflar qo'llanma mazmunini yaxshilashda o'zlarining qimmatli maslahatlari bilan ko'maklashgan Toshkent, Samarqand, Buxoro pedagogika bilim yurtlariga, shuningdek, Toshkent Davlat Jahon tillari Universiteti "Tarjimon" fakulteti dekani Qambarov Nosir Mansurovichga samimiy minnatdorchilik izhor qiladilar.

Mualliflar

TIL O'RGANISHDA INTERNET IMKONIYATLARI

Chet tili o'qituvchisi didaktik materiallarni yaratish va yaxlit o'quv jarayonini optimallashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchi uchun axborot muhiti – Internet: qo'shimcha (tematik, mavzuli, metodik, didaktik) axborotlar olish; til o'rganish bo'yicha hamkasblar o'rtasida (ingliz, Leacher.som) axborot almashish; turli masofaviy loyihalar, konferensiya, tanlovlarda o'qituvchilarning ishtiroklari; Internet texnologiyalaridan foydalanib, xususiy metodik ishlanmalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini beradi. O'qituvchilar ko'p qirrali zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalaridan foydalanib, dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rsalar ham bu ishlarga zarur materiallarni tanlashda ayrim qiyinchiliklarga duch keladilar. Internet esa o'qituvchiga mavjud bozordan zarur bo'lganlarni tezkorlik bilan topish, ularni tahlil qilish, o'z shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqishi va muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Biroq barcha qulayliklardan qat'iy nazar bu masalada ham ayrim kamchiliklar mavjud.

Eng ko'zga tashlanadigan kamchilik materiallar tuzilmasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. Zamonaviy o'qituvchi axborotlar oqimidan o'z yo'nalishini aniq belgilab olishi lozim. So'nggi yillarda axborot texnologiyalaridan yangi texnik vosita, o'qitishning yangi shakl va metodlaridan foydalanish, o'qitish jarayoniga yangicha yondashuv talab etilmoqda. Ma'lumki, chet tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda chet tilini amaliy tarzda o'zlashtirish va ularda kommunikativ madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarda chet tilini o'rganish jarayonida tilni puxta egallashlari va ularning ijodiy tafakkur faoliyatini faollashtirishdan iborat.

Zamonaviy o'qitish tizimi hamkorlikda o'qitish va axborot texnologiyalari, internet tizimidan foydalanib, loyiha metodikasini qo'llashni talab etadi. Bu metodika o'quvchilarda shaxsning o'zligini namoyon etish, o'qitishga yo'nalganlik bilan yondashish, har bir shaxs xususiyatlarini, o'qishda egallaydigan o'zlashtirish darajalarini, iqtidorlarini va hokazolarni hisobga olgan holda ta'limni induviduallashtirish va samaraliligini oshirishga yordam beradi. Kompyuterdan

foydalanishda ta'limiy dasturlardan keng foydalaniladi. Chet tilini o'qitishda ta'limiy dasturlar:

1. So'z boyligini kengaytirish, yangi so'zlarni o'zlashtirish (mavzuli leksikalar masalan: oziq-ovqat, kiyim-kechak savdosida, shifokor huzurida va boshqalar);

2. Talaffuzni rivojlantirish (ko'pgina ta'limiy dasturlarda ish rejimida mikrofondan foydalanish ko'zda tutilgan. Ekranida tasvir etilgan predmed va hodisalar nomi avval eshitilib, so'ng talaffuz qilinadi, ular taqqoslanib kamchilik ko'rsatiladi).

3. Dialog nutqni o'rgatish:

1-bosqich dialog bilan tanishish;

2-bosqich uni takroriy o'rganish, dialogni amalga oshirishdan iborat.

4. Yozuvni o'rgatish. Bunda chet tilidagi so'zni to'g'ri yozishga o'rgatish vazifasi amalga oshiriladi.

So'nggi vaqtlarda o'qitish metodikalariga «loyiha» termini kirib keldi. Ushbu metodikadan hozirda keng foydalanilmoqda, chunki ulardan foydalanilganda o'quvchilarni o'quv jarayonida turli xil manbalar bilan mustaqil ishlashga jalb etadilar, bu bir muammoni hal etish paytida turli soha bilimlaridan foydalanishga imkon beradi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Nemis tili o'qituvchilari uchun «Mening Vatanim» mavzusi ustida ishlashda mazkur metoddan foydalanib, elektron dars loyihasini tayyorlash mumkin. Jumladan, o'quvchilarga quyidagidek elektron dars loyihasida amallarni bajarishni taklif etish mumkin:

	Loyiha turlari	Bajarish shakli
1	Wie schon ist die	Rasmlar asosida insho yozish
2	«Das Rote Buch»	Qisqacha axborot ma'lumotnoma
3	Pensaer	Jamoatchilik fikrini o'rganish asosida umumlashtirilgan natijalar

Mavzu ustida ishlashni boshlashdan avval uni bajarish uchun zarur bo'ladigan leksik va gramatik materialni takrorlashga va tabiatshunoslik materiallarini esga

olishga imkon beradigan kirish kursiga e'tiborni qaratish lozim. Takrorlashdan so'ng foydalanuvchilarga mintaqa, respublika, viloyat va shaharlar tilsiz xaritasi taklif etiladi, chegaralar, yer yuzasining tuzilishlarini, katta shaharlar, foydali qazilmalar joylashgan hududlarni ifoda etadilar. Shu bilan birga ular viloyatlar haqida qisqacha geografik ma'lumotnoma tuzadilar, uni «Wissen Sie das Gebiet in Ziffern und Zahlen» deb atash mumkin. Unda chegaralar, hududi, aholisi (shahar va qishloqlar aholisi), tumanlar, katta shaharlar soni, daryolar, tog'lar, foydali qazilmalar, viloyatlar iqlimi haqida axborotlar beriladi. Mavzu ustida ishlash jarayonida darsda o'quvchilar til va nutqiy materiallarni yetarli darajada egallab olganlaridan so'ng quyidagi assosiogrammani to'ldiradilar. Keyingi darslarda assosiogramma kengaytiriladi, «Sifatlarning turlanishi» mavzusi grammatikasi bilan tanishgandan keyin esa o'quvchilar «meine Heimat!» mavzusi bo'yicha to'la assosiogrammani to'ldiradilar. Birinchi loyiha «Wie schon ist die Natur meines Heimatlandes» mavzusida fotosuratlar va rasmlar asosidagi insho shaklida tuzilishi mumkin. Buning uchun bolalar rasm chizadilar, jonajon diyorni, hushmanzara joylarni, tabiatni suratga oladilar. Shu bilan birga otkritkalar, jurnallardan rasmlardan ham foydalaniladi. Har bir peyzaj, ko'rinishga matn tuziladi, yorqin sarlavhalar tanlanadi, tabiat haqida qiziqarli she'rlar tanlanadi. Ikkinchi loyihaga qisqacha axborot spravochnigi tuziladi. Axborotlar to'plash uchun bolalar geografiya, biologiya bo'yicha qo'shimcha manbalar bilan ishlaydilar, ana shu fanlar bo'yicha o'qituvchilarga yordam bilan murojaat etadilar, turli qo'llanma va adabiyotlardan foydalanadilar. Uchinchi loyihani tuzishda so'rovnoma tuziladi. Internet imkoniyatlaridan foydalanish chet tillarini yanada chuqurroq o'rganishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Applikatsiya materiallar «O'quvchi va uning atrofida», «Bizning mamlakatimiz» og'zaki nutq mavzulari bo'yicha ishlash imkonini beradi.

Applikatsiya materiallardan “audirovaniye” (to'g'ri talaffuz mashqi) hamda gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin. To'g'ri talaffuz mashqi ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi flanelegrafda yoki magnet doskasida bir xil mantiqiy ketma-ketlikda kompozitsiyaning alohida detallarini namoyish etadi. Kompozitsiyaning namoyish etiladigan detallari aytilgan gaplarni eshitishda ko'rish

tayanchi hisoblanadi. Bu eshitish axborotni qabul qilishni osonlashtiradi, asosiysini ajratib olishga yordam beradi.

O'qituvchi o'quvchilarga tuzilgan kompozitsiyani gapirib berishni taklif etishi yoki avvaldan tanlab olingan applikatsiyalardan ma'lum vaziyatni yaratishni keyin esa tuzilgan kompozitsiyani gapirib berishni so'rashi mumkin. Bundan tashqari kartinaning alohida qismlari bo'yicha yoki butun syujet bo'yicha umuman suhbatlashish foydali bo'ladi.

Kartinalarni osongina joylarini o'zgartirish, ularni turli vaziyatlarga birlashtirish, shu bilan qo'shimcha nutqiy vaziyatlar yaratish o'quvchilarni nutqini qo'zg'atadi. Nashriy (bosma) qo'llanmalar orasida jadvallar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chet tillar bo'yicha jadvallarda til materiallari odatda tasviriy materiallar bilan birga beriladi. Jadvallar gramatik materiallarni faqatgina umumlashtirib, tizimlashtirib, so'z tuzilishi yoki shakl tuzilishini ko'rsatibgina qolmay, balki aniq bir materialdan nutqda foydalanishni ham osonlashtiradi.

Hozirgi kunlarda maktablarda chet tili darslarida nutqni rivojlantirish bo'yicha quyidagi leksik jadvallardan foydalaniladi. Boshlang'ich, o'rta va katta yoshdagi o'qitish bosqichlari uchun ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari gramatikasi bo'yicha jadvallar ishlab chiqilgan. Leksik jadvallar quyidagi didaktik vazifalarni: leksik materiallar bilan tanishtirish; o'quvchilar nutqida uni faollashtirish; leksik materiallarni tizimlashtirishni bajaradi va shunga xizmat qiladi.

Bu sanab o'tilgan usullarning ustunliklari shundaki, ularning tematikasi leksik-gramatik materialni egallab olishdagi asosiy qiyinchiliklarni hisobga olib berilishini ko'rsatish mumkin. Misol uchun so'z sinonimlari jadvalida bir qator leksikalar berilgan, chunki aynan mana shu leksik material undan nutqda foydalanishda o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. O'quvchilar jadvalda ko'rib, uni talaffuz etadilar va yozib oladilar. Bu esa ularni oson o'zlashtirishga yordam beradi.

Leksik jadvallarda ovozli materiallar bilan bir qatorda yumoristik, hajviy usulda bajarilgan rasmlar ko'rinishida, tasviriy materiallardan ham foydalanilishi mumkin. Rasmlar sharhlovchi va rag'batlantiruvchi vazifalarni bajaradilar.

Bunday ovozli va tasviriy materiallardan birgalikda foydalanish o'qituvchiga turli xildagi topshiriqlarni: o'qituvchi savollariga javob berish, rasmlarga o'quvchilarning o'zlari savollar tuzishlari; jadvalda berilgan namunalar bo'yicha o'z misollarini tuzish; jadvaldagi ovozli va tasviriy materialga tayangan holda ibora va iboradan ortiq birgalikdagi darajada kichik gaplar tuzish kabilarni bajarishga imkon beradi.

Chet tillari gramatikasi bo'yicha jadvallar tematikasi asosan dasturga mos keladi. Til gramatikasi bo'yicha jadvallar nutqda gramatik hollardan foydalanish bo'yicha eng ko'p uchraydigan vaziyatlarni ko'rsatib beradi.

Jadvallarda gramatik shakllarni tashkil bo'lishi qiyin holatlarini ko'rsatib beruvchi rasmlardan keng foydalaniladi.

Gramatika bo'yicha jadval bilan ishlashdan avval bosma matnga qaramasdan namunani og'zaki ishlab chiqish amalga oshiriladi. Jadvaldan biror-bir qonuniyatni aniqlash uchun hamda til materiallarini umumlashtirish va sistemalashtirish uchun foydalaniladi. Savollar soni va xususiyati mavzuning murakkabligiga, leksik yoki gramatik jadval mazmuni va o'quvchilar tayyorligi darajasiga bog'liq bo'ladi, jadval shakli o'ziga xosligiga, materiallarnig joylashtirilishiga, shartli belgilarga alohida e'tibor qaratish kerak.

Til laboratoriyalari sharoitlarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun maxsus mo'ljallangan bosma qo'llanmalar alohida guruhi ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha juftliklarda ishlash uchun tarqatiladigan didaktik materiallardan iborat.

Bosma qo'llanmalarining bu turi lingofon qurilmalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, og'zaki amaliyotga vaqtni oshirish, o'quv jarayonini boshqariladigan, differensial qilishga, uni samarasini oshirishga imkon beradi.

Juftlikda ishlash uchun tarqatiladigan didaktik materiallar – audioaktiv turdagi lingofon qurilmasi bilan jihozlangan o'quv xonada ham va oddiy sinfda ham foydalanish mumkin bo'lgan dasturli qo'llanmadir.

Didaktik tarqatiladigan materiallarga leksik – gramatik ko'nikmalarini shakllantirishga, dialogik va monologik nutqini tayyorlashga yo'naltirilgan mashqlar

va uyda o'qib chiqqan matnni tushunishini tekshirishga mo'ljallangan mashqlar kiritilgan.

Didaktik tarqatiladigan materiallarga tayanib juftlikda ishlarni bajarishdan avval o'ziga xos tayyorgarlik bosqichi amalga oshiriladi. Bu bosqichda o'qituvchi u yoki bu mashqning maqsadini tushuntiradi, ba'zida uni bajarish va nazorat qilish usullarini eslatib o'tadi, shundan keyin o'quvchilarning bir-ikki juftliklari sinfdagilar oldida shunga o'xshash mashqlarni ovoz chiqarib bajaradilar.

Faqatgina o'qituvchi o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifa tushunarililigiga ishonch hosil qilgandan keyin hamma baravariga juftliklarda ishlarni bajarishga kirishadilar.

O'qituvchi o'quvchilar ishlarini asta-sekin nazorat qilib boradi. Bunda audioaktiv turdagi lingofon qurilmasi katta yordam beradi, bu qurilma boshqalarga xalaqit qilmay. Alohida o'quvchilar juftliklari ishlariga ulanish va kerakli tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Ishni boshqalardan avval tugallagan ba'zi o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar taklif etiladi. DRM va lingofonli qurilmalar yordamida o'quvchilarga turli darajadagi qiyinchiliklarga ega topshiriqlar berib, ularga differensial yondoshishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Nutqiy tayyorgarlik mashqlarini juftliklarda bajarish jarayonida tilga bir xil tayyorgarliklarga ega bo'lgan o'quvchilarni birlashtirgan ma'qul bo'ladi.

CHEK TILINI O'RGANISHDA YORDAMCHI YASAMA QO'LLANMALAR

Chet tillari xonasi birinchi navbatda chet tillar, bo'yicha namunaviy ro'yxatda ko'rsatilgan o'quv vositalari bilan ta'minlanishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga ko'p yillik tajribalar ijodiy ishlovchi o'qituvchilar ularga qo'shimcha o'zlari yaratgan qo'llanmalardan foydalanishlarini ko'rsatadi.

Qo'lda yasalgan qo'llanmalar asosan o'lkashunoslik va kundalik hayot bo'yicha materiallar asosida yaratiladi, chunki hech bir markazlashtirilgan nashr etiladigan qo'llanma mahalliy sharoitni, uning tabiatini, iqtisodiy rivojlanishi

xususiyatlarini aks ettira olmaydi va kundalik materiallarni doimiy yangilanib borishini ta'minlamaydi.

Darsni qiziqarli bo'lishiga intilish, o'quvchilarning og'zaki amaliyotlarini tashkil etish uchun dolzarb mavzulardan foydalanish, ular uchun shaxsan ahamiyatli materiallarni kiritish istagi (ular bilan yonma-yon yashayotgan urush va mehnat faxriylari haqida, shahar, qishloq tarixi haqidagi va boshqa hikoyalar), o'qituvchilarni ana shu materiallar asosida qo'llanmalarni o'z qo'li bilan yaratishga chorlaydi.

Bundan tashqari til bo'yicha o'quvchilarni tayyorlashdagi farqlar o'quvchilarga bilimlaridagi kamchiliklarni to'ldirish uchun, o'rganilayotgan til bo'yicha o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradigan qo'lida yasalgan qo'llanmalar uchun juda muhim sabab hisoblanadi.

Bunday ishlar natijasida dars paytida va darsdan tashqari vaqtda ham umumta'lim o'quv masalalarini hal etishga yordam beruvchi qo'llanmalar fondi ortib boradi. O'quvchilarda olgan bilimlarini amalda qo'llash, ishlaridan amaliy foydani his etishga, o'z bilimlarini kengaytirish, izlanish faoliyatida ishtirok etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Qo'lida yasalgan qo'llanmalarni tayyorlash bo'yicha ishlarning tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarning stendlarni yaratish, sinfdagi mavjud uskunalarni ta'mirlash uchun materiallar to'plash bo'yicha jamoatchilik ishlarini tashkil etishdan iborat bo'ladi. Hamkorlikda ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish jamoani birlashtiradi, mas'uliyatni his etishlarini Chet tilini o'rganish jarayonida innovatsion texnologiyalar pedagogik innovatsiya jarayonlar olimlar tomonidan XX asr 50 – yillari oxirlaridan boshlab ishlab chiqila boshlagan.

Bizning Respublikamizda oxirgi 10 yillar davomida tadqiqotlar predmeti bo'lib kelmoqda. Innovatsiya jarayonni rivojlantirish va takomillashtirish uchun ta'lim texnologiyalarining hamma muammolarini chuqur tahlil qilish, pedagogik innovatsiyalar katta hajmdagi tajribalarini umumlashtirish kerak bo'ladi.

Faqatgina yangi g'oyalardan, texnologiyalardan foydalanilgandagina o'qitishda rivojlanishga, taraqqiyotga erishish mumkin bo'ladi. Pedagogik texnologiyalar orasida eng ilg'or, samaralilari quyidagi pedagogik texnologiyalar hisoblanadi:

insonparvarlik, muammoli o'qitish texnologiyasi, rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish o'qitish texnologiyasi hamkorlik texnologiyasidir.

“Bu texnologiyalarning barcha ham chet tili mashg'ulotlari jarayonida foydalanilsa yaxshi samara berishi shubhasiz. Ayniqsa, dars o'tishda hamkorlik texnologiyasidan foydalanishdan maqsad hamkorlikda ta'lim olishda eng umumiy g'oyalari bilan o'quvchilarni tanishtirishdan iboratdir.

Hamkorlikda o'qitish pedagogikada an'anaviy metodlarga eng muvaffaqiyatli muqobillik sifatida qaraladi.

Bu texnologiya shaxsga yo'naltirilgan yondoshishni aks ettiradi. Hamkorlik texnologiyasi asosida faqatgina har bir o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olishlarigina emas, balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga olgandagina yaxshi samara beradi.



DAVRIY NASHRLAR MATERIALLARI ASOSIDA TAYYORLANGAN QO'LLANMALAR

Davriy nashrlar materiallaridan foydalanish chet tillar dasturlari talablariga javob beradi. Imtihon biletlarida bizning mamlakatimiz va o'rganilayotgan til mamlakati siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayoti haqida gazeta maqolalaridan lavhalar o'qish topshiriqlari kiritiladi.

Bularning barchasi davriy nashrlar materiallaridan o'quv jarayonida foydalanish masalalarini dolzarblashtiradi. Dunyoda sodir bo'layotgan voqea – hodisalar haqidagi axborotlarning dolzarbligi, tezkorligi, jadal suratlarda o'zgarib borishi uning o'ziga xos xususiyati va qimmatliligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz hayoti haqida munozaralar olib borish mamlakatimizda va chet ellarda odamlarni nimalar qiziqtirishi haqida gaplashish har doim ham qiziqarlidir. Bunday axborotlar darsni qiziqarli qiladi, o'quvchilarni og'zaki nutqini rag'batlantiradi. Ularni samaraliroq ishlashga undaydi.

Aynan davriy nashrlar materiallari o'qituvchiga turli muhim sanalarga bag'ishlangan mavzular bo'yicha nutq amaliyotini tashkil etishga yordam beradi. Mamlakatimiz va chet elda madaniy va sport hayoti haqidagi xabarlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Bunda mamlakatimizda chiqadigan chet tillardagi gazetalar, jurnallar dunyodagi voqea-hodisalardan xabardor bo'lishga xizmat qiladi.

Davriy nashrlar materiallaridan foydalanish bo'yicha o'quv jarayonini samaraliligini oshirishga yordam beruvchi yasama qo'llanmalarni tayyorlash mumkin. Davriy nashrlar materiallaridan foydalanib, uning to'plamlarini jamlash va tayyorlash o'qituvchuning rahbarligi ostida amalga oshiriladi.

Agarda o'qituvchining fikricha maqola muhim ahamiyatga ega bo'lsa, undan keyingi ishlarda foydalanish uchun ajratib olinadi.

O'qituvchi ularni alohida papkaga to'plab boradi, shunday qilib alohida mavzular bo'yicha ajratilgan tarqatma materiallari asta-sekin jamlab boriladi.

Turli mamlakatlar odamlari hayotidagi faktlar, qiziqarli izlanishlar va ilmiy kashfiyotlar haqidagi axborotlarni o'quvchilarni juda qiziqtiradi. Biroq maqolani

stendga joylashtirishdan avval o'qituvchi uni til jihatidan tushunarligini ko'rib chiqishi kerak.

Agar unda tushunishga qiyin bo'lgan qandaydir so'z birligi yoki iboralar bo'lsa, o'qituvchilar ularni tushunib olishlariga yordam beradigan va osonlashtiruvchi sharhlarni ko'zda tutish kerak bo'ladi. Gazeta maqolalari kichik harflar bilan yozilganligi sababli maqolani katta harflar bilan yozib chiqish foydali bo'ladi.

Katta sinflarda gazeta va jurnallarni karekaturalarda samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Materiallarni tanlab olishda karekaturalarni ma'noli mazmunli fikrlash faoliyatini faollashtiradi. O'quvchilar oldida ular ko'rib turgan suratlarini faqatgina tasvirlab berish emas, balki, chet tilida ushbu tasvirning mazmudini ifoda etib berish, voqea-hodisa va dalillarni tushuntirib berish masalasi turadi, shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqlarini tashkil etish uchun oddiy, mazmuni bo'yicha tushunarli karekaturalarni tanlab olish, o'qituvchilarning og'zaki nutqlari rivojlanganligi darajasini hisobga olish kerak bo'ladi.

Ayrim holatlarda rasmlar mazmuni boyicha gap tuzilishda yordam beradigan alohida so'zlar va so'z iboralarini ro'yxatini ko'zda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi bunday topshiriqlarni birinchi navbatda yaxshi tayyorlangan o'qituvchilarga taklif qilish to'g'ri bo'ladi.

Yuksak darajali qiyin hisoblangan topshiriqlar chet tili darslarida ularning nutqiy faoliyatlarini, faolliklarini rag'batlantiradi. To'plangan tasviriy materiallar asosida o'quvchilarning nutqiy faoliyatlarini tashkil etish uchun tarqatma qo'lanmalari tashkil etilishi mumkin bo'ladi.

Davriy gazeta, jurnallarni materiallaridan darsdan tashqari vaqtlarda to'garak yoki fakultativ mashg'ulotlarda radio eshittirishlar tayyorlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

O'QUVCHILAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA FOYDALANILADIGAN TARQATMA MATERIALLAR

Tarqatma materiallarni tayorlash ko'pincha bir guruhda o'qiydigan o'quvchilarning bilim darajalari bir xilda bo'lmaganligi sababli yuzaga keladi. O'quv jarayonini individuallashtirib chet tili o'qituvchilari ko'pincha o'zlari individual topshiriqlar bilan chet tilida kartochkalar tuzadilar. Bu o'quvchilarning axborot rejasini mustaqil aniqlab olishlarini, til vositalarini tanlab olishlarini nazarda tutuvchi ijodiy xususiyatdagi topshiriq darslik mashqlari murakab variantlari bo'lishi mumkin.

Yaxshi tayyorlanmagan o'quvchilar uchun ham shunga o'xshash topshiriqlar taklif etish mumkin. Lekin topshiriq bajarishni osonlashtiruvchi tayanch elementlarini kartochkada ko'zda tutish zarur bo'ladi. Tasvirlash uchun rasm asosiy so'zlar va iboralardan iborat bo'lishi kerak. Misol uchun, kuchli o'quvchilarga quydagicha topshiriq berish mumkin. Maktabimizda makalatura topshirish ishlari qanday tashkil etilganligi haqida so'zlab bering.

Yaxshi tayorgarlikga ega bo'lmagan o'quvchilarga esa shunday topshiriqni bajarish uchun rasmlar bilan kartochkalar tarqatiladi (maktab hoviisiga ba'zi bir o'quvchilar makalatura olib kelsalar boshqalari qabul qilib oladilar).

Kartochkalarda o'quvchilar hikoya tuzishlarida yordam beradigan iboralar ham berilgan. Kartochkalar bo'yicha topshiriqlar o'quvchilarga dars paytida hamda uyga vazifa sifatida berilgan topshiriq tarzida bajarilishi mumkin.

O'quvchilarning og'zaki nutqini tashkil etish sifatida juft bo'lib shug'ullanish ilgari yaxshi tanish bo'lgan metodika hisoblanadi, ammo faqatgina o'quvchilarning juft bo'lib ulanish, ish joylarini tashkil etishni ko'zda tutuvchi lingofonli qurilmalarning maktablarda paydo bo'lishi va maxsus ishlab chiqilgan qo'llanmalar-didaktik tarqatma materiallar paydo bo'lishi har bir o'quvchi og'zaki nutqi mustaqil shug'ullanish vaqtini oshirish maqsadida ishlash tashkiliy shakli ushbu turini hamma metodik turlarini ustunliklarini to'la amalga oshirishga imkon beradi. Ammo juftlikda ishlash uchun mashqlar tuzish jarayon va ko'p mehnatni talab etadi. Biz bu ishni barcha o'quvchilarga ham tavsiya eta olmaymiz.

Bu yo'nalishda ishlovchi o'qituvchilar uchun bu ular tomonidan tuzilgan bo'lib, alohida mashqlar variantlarini taklif etishimiz mumkin bo'ladi. Birinchi navbatda shu maqsadda darsliklardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Juftlikda ishlash uchun mashqlarning kartochkalarga ko'chirib o'tkazish o'quvchilarning barchasi bir vaqtda o'quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida darsda har bir o'quvchining og'zaki nutqi faoliyati vaqtining ancha oshirishga imkon beradi.

Juftlikda ishlash uchun kartochkalar tuzishda darslik mashqlaridan foydalanish qo'lanma bilan ishlash bosqichini to'g'ri aniqlash va shu bilan birga sinfda har bir o'quvchi faoliyatini bir vaqtda faollashtirishga imkon beradi. Ma'lumki har qanday o'quv vositalarining mazmuni va yaratilishi undan foydalanish o'quv jarayoni talablari asosida bo'ladi. Misol uchun, o'quvchi uyda o'qib kelgan topshiriqni tushunganliklarini tekshirish kerak bo'lgan hollarda odatda mavzu oxirida beriladigan savol javob mashqlarida yoki to'g'ri va xato javoblardan iborat mashqlardan foydalaniladi.

Odatda bunday mashqlardan foydalanish frontal o'tkaziladi, ammo frontal olib borish hatto topshiriqni tez suratlarda bajarish ham har bir o'quvchining mavzuni tushinish to'laligi va aniqligini belgilab olishga imkon beradi. Til laboratoriyalari sharoitida lingofon uskunalari mavjud bo'lgan hollarda, bu ishlarni juftlikda ishlash uchun kartochkalardan foydalanish ancha samarali tashkil etish mumkin bo'ladi.

O'qilgan matnni tushunganligini tekshirishga mo'ljallangan mashqlarga mo'ljallangan instruksiyalar quyidagicha ifoda etilishi mumkin: Answer the questions on the text Moscow.

Savol – javob mashqlaridan o'qigan matnni tushunganligini tekshirish uchun foydalanilganda ba'zi savollarni soddalashtirish mumkin. Chet tillari o'quv xonasida ekspozitsiyalar.

Ekspozitsiyalar deyarli har bir chet tillari o'quv xonalarida mavjuddir. U birinchi navbatda o'quv xonaning tashqi ko'rinishini belgilaydi. Chiroyli tuzilgan stendlar, eksponatlarni to'g'ri joylashtirish, ranglarni to'g'ri tanlash - bularning hammasi o'quvchilarni estetik tarbiyalash masalasini hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Ammo o'quv xonada ekspozitsiyaning roli bu bilan cheklanmaydi. Ekspozitsiya materiallari bilan stendlarni nafaqat o'quv xona intererining bir qismi sifatida, balki o'qitish va tarbiyalashni o'ziga xos vositasi sifatida ham qarash kerak.

Ekspozitsiya o'quvchilarning o'rganayotgan tillari haqidagi bilimlarini oshirishga imkon beradigan axborotlarni yetkazish uchun foydalaniladi, to'g'ri tuzilgan topshiriqlar va ko'rsatmalar yordamida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishda foydalaniladi. U og'zaki nutq mavzulari bo'yicha, davriy nashrlar va o'lkashunoslik materiallari bo'yicha yasama o'quv vositalarini o'quv jarayoniga kiritishni osonlashtiradi.

Ekspozitsiyaning tarbiyaviy ahamiyati tanlangan eksponatlar mazmuni orqali amalga oshiriladi: davriy nashrlar materiallari, tili o'rganilayotgan mamlakat va bizning mamlakatimiz haqidagi materiallar, mavzular bo'yicha tasviriy materiallar. Chet tillari o'quv xonasida ekspozitsiyalarning ahamiyati va o'ziga xosligi tili o'rganilayotgan mamlakatning muhitini yaratishdan iborat. Ekspozitsiyaning ushbu vazifasi boshqa o'quv xonalardagi ekspozitsiyalardan uning farqini ko'rsatuvchi sifati hisoblanadi, chunki so'zlashish muhitining yo'qligi o'qituvchidan chet tilida so'zlashishga asos bo'luvchi sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha harakatlarni talab etadi.

Vazifasi bo'yicha stendlar quyidagi guruhlarini ko'rsatish mumkin: tili o'rganilayotgan mamlakat haqida o'quvchilar tasavvurini kengaytiruvchi; davriy nashrlar materiallari bo'yicha stendlar; dastur alohida materiallari bilan va og'zaki nutq mavzulari bo'yicha materiallar bilan ishlash mumkin.

Ekspozitsiyani tashkil etish uchun foydalaniladigan eksponatlar sifatida tasviriy (rasmlar, fotosuratlar, otkritkalar) va matnli materiallarni (ko'rgazmalarga matnlar, instruktiv material, maqola yoki kitob bo'yicha turli xildagi topshiriqlar) ko'rsatish mumkin.

Stendda beriladigan matnli va tasviriy materiallarning nisbatlari axborotni qabul qilish xususiyatini hisobga olgan holda hal etiladi. Tik turib katta hajmdagi matnni o'qish har doim ham qiyin bo'ladi. Aynan mana shuning uchun stendlarda odatda tasviriy materiallar ko'proq bo'ladi.

Matnlar kam joyni oladi, matn va tasviriy materiallarning mazmuni stendning vazifasiga bog'liq bo'ladi.

O'lkashunoslik stendlarida asosan rasmlar, fotosuratlar va otkritkalar beriladi. o'quchilarga tili o'rganilayotgan mamlakatning hayoti, ijtimoiy tizimini yaxshiroq bilib olishlariga imkon beruvchi sharoitni yaratish uchun mo'ljallanadi.

Ularni dars paytida o'quvchilar e'tiborini tortmasligi uchun sinfning orqa devoriga o'rnatgan maqul bo'ladi. Agarda o'lkashunoslik stendda ikkita bo'lsa, ulardan birida tili o'rganilayotgan mamlakat haqida ma'lumotlar berilishi, ikkinchisida esa bizning mamlakatimizning go'zalligi, jamiyatimiz rivojlanishi yo'lidagi yutuqlarimizni aks ettiruvchi, jamiyatimiz hayoti, fan, madaniyat va iqtisodiyoti rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilishi mumkin bo'ladi.

O'lkashunoslik stendlarininng bunday tematikasi (agarda materiallar to'g'ri tanlangan bo'lsa) o'quvchilarni ma'naviy – g'oyaviy tarbiyalash maqsadlari uchun xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

O'lkashunoslik stendlarini tuzishda rangli fotosuratlardan, jurnallardan, tili o'rganilayotgan mamlakatning buyuk insonlari portretlaridan foydalaniladi. Tasviriy materialarga sharhlar qisqacha bo'lishi, uning asosiy mazmunini aks ettiradigan bo'lishi kerak.

Dasturning alohida masalalariga bag'ishlangan stendlar o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishi va kengaytirishi, leksik – gramatik minimumini yaxshiroq o'zlashtirish uchun sharoitlar yaratishi kerak.

Ekspozitsiyalar uchun eksponatlar o'qituvchi tomonidan ushbu sinf o'quvchilarining tayyorgarligi darajasini hisobga olgan holda tanlab olinishi talab etiladi. Stendda o'qituvchining fikri bo'yicha o'quvchilar tushunishlari qiyin bo'lgan til materiallari joylashtiriladi. Bular o'quvchilar hozirgi paytda o'rganayotgan yoki ilgari o'rgangan. Lekin yaxshi eslab qola olmagan nutqida kam foydalanadigan dastur savollari bo'lishi mumkin. Masalan, The Present Perfect Tense gramatik mavzusini o'rganishda stendda ushbu davr ko'rinishlari shakli tashkil bo'lishi formulasi bilan kartochkani hamda nutqning ushbu davriy ko'rinish shakli ahamiyati va qo'llanilishini namoyish etuvchi yozuvlar (odatda bular kichik dialoglar bo'lib, ikki-

uch so'zlardan tashkil topadi) bilan vaziyatni rasmlar bilan kartochkalarni joylashtirish mumkin bo'ladi.

Davriy nashrlar materiallari bilan stendda asosan namoyish etish vazifasini bajaruvchi tasviriy material bilan birga matnli materiallardan tarkib topadi. Stenddan foydalanish davriy nashrlar materiallari bilan ishlash quyidagi metodikasini amalga oshirishga imkon beradi. O'qituvchi o'quvchilar o'qib chiqishlari kerak bo'lgan maqolani yoki maqoladan lavhani stendga joylashtiradi.

Matnga gazeta va jurnallardan fotosuratlar bilan ko'rgazmali materiallar berilsa juda yaxshi bo'ladi. Uning yonida maqolani o'qib chiqish paytida o'quvchilar duch kelishlari mumkin bo'lgan leksik-gramatik qiyinchiliklarni tushuntiruvchi maqolaga sharh joylashtiriladi.

Unda qaysi leksikani yoki so'z birikmalarini eslab qolish kerakligi ko'rsatiladi. Maqola bo'yicha topshiriqlar o'quvchilarning tayyorligi darajasiga qarab tabaqalashtirilishi mumkin. Misol uchun: maqola mazmuni bo'yicha savollarga javob berish, uni qayta hikoyasini tuzish, asosiy mazmunini ajratib ko'rsatib va ifoda etib berish topshiriqlarini ko'rsatish mumkin.

Tayyorligi turli darajada bo'lgan o'quvchilar mos ravishda qiyinchiliklarga ega topshiriqlar oladilar. Shuni aytib o'tish kerakki stendda joylashtirilgan maqola individual shug'ullanish uchun har bir o'quvchi gazetaga ega bo'lishi zarurligini inkor etmaydi.

Stend materiallarining asosiy vazifasi – yo'naltiruvchi – axborot yetkazish bo'lib o'quvchilarga qaysi maqolani ular o'qib chiqishlari kerakligi, qaysi topshiriqni bajarishlari kerakligini ko'rsatib berishdan iboratdir.

